

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427

journal.namdu.uz





Bosh muharrir: *Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov*

Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov*

Mas'ul muharrir o'rinbosari: *Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov*

TAHRIRHAY'ATI

Fizika-matematika fanlari: akad. S.Zaynobiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.d., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

Kimyo fanlari: akad. A.To'rayev, akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, t.f.d., v.b. prof. G'.Doliyev, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

Biologiya fanlari: akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., prof. A.Batashov, b.f.d., prof. N.Abdurahmonov, b.f.d., dots. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.n., dots. D.Dexqonov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

Qishloq xo'jaligi fanlari: g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

Tarix fanlari: akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov.

Iqtisodiyot fanlari: i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

Falsafa fanlari: f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.d. dots. Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.n. dots. L.Yuldasheva, f.f.d., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. dots. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva.

Geografiya fanlari: g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov, g.f.d., dots. A.Nazarov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n.,dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.d., dots. S.Abdullayev, PhD. D.Sarimsakova.

Tibbiyot fanlari: b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

Psixologiya fanlari: p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

Texnik muharrir: *N.Yusupov.*

Tahririyat manzili: *Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy*

Faks: (0369)227-07-61 **e-mail:** info@namdu.uz

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-iyundagi kengaytirilgan 6-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 6). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023

создания русско-английского фразеологического словаря: Автореф. дис. ... док. филол. наук. - М., 1993.

3. Гачев Г. О. О национальных картинах мира. - Народы Азии и Африки, 1967, № 7.

4. Гак В. Г. Сравнительная типология французского и русского языков. - Л., 1977.

5. Ногайцева В.Ф., Печенина Л.А. Животные и растения в английской речи. \ \ English, 2005, №18.

6. Хомякова Н.А. Эмотивные фразеологизмы в русском, французском и английском языках (сопоставительный анализ): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - М., 2008.

UDK: 81-13

TILSHUNOSLIKDA SO'ZLARNING SEMANTIK MAYDONLAR ASOSIDA O'RGANILISHI

Umirzoqova Fotima Irisboevna

Katta o'qituvchi

M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda so'zlarning semantik maydon nazariyasi asosida o'rganilishi masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: qiyosiy tilshunoslik, semantika, semantik maydon, semantik maydon nazariyasi, paradigma, leksik-semantik guruh (LSG).

Аннотация. В данной статье рассматривается изучение слов на основании семантических полей в языкознании.

Ключевые слова: компаративная лингвистика, семантика, семантическое поле, теория семантического поля, парадигма, лексико-семантическая группа (ЛСГ).

Abstract. This article is about comparative analyzes of studying semantic field of words in linguistics.

Keywords: comparative linguistic, semantic, semantic field, semantic field theory, paradigm, lexical-semantic group (LSG).

Kirish

Ikki yoki undan ortiq tillar qiyoslanayotganida turlicha metod va yondashuvlardan foydalaniladi. Shulardan biri "maydon yondashuvi" bo'lib, bunda ikki yoki undan ortiq tillarning bir nomga ega bo'lgan maydonlari qiyoslanadi. Tilshunoslik nazariyasidan ma'lumki, maydonlarning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ichida tushuncha maydoni, semantik maydon, grammatik-leksik maydon, sintaktik va funktsional-semantik maydonlar ajratiladi. Ikki til leksik sistemasi qiyoslanayotganda semantik maydon nazariyasiga asoslanish yaxshi natija beradi.

Ma'lumki, F. de Sossyur tilshunoslar diqqatini lingvistik birliklar orasidagi munosabatni ochishga qaratib, munosabatning paradigmatic va sintagmatic turlari mavjudligini ko'rsatgan edi. Lingvistik birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma'no asosida ma'lum paradigmalarga birlashuvi keyinchalik tilshunoslikda maydon nazariyasini vujudga keltirdi. Lingvistikada "ma'no" (mazmun) umumiyliги bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning

tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan, leksik birliklar) yig'indisi maydon sifatida belgilandi.

Tilshunoslikda, ayniqsa, semantik maydon nazariyasi keng ommalashdi. Ma'lumki, tilshunoslikka "semantik maydon" termini nemis tilshunosi G.Ipsen tomonidan kiritilgan. Olim semantik maydonni belgilashda so'zlarning nafaqat leksik, balki grammatik umumiylikiga ham suyanib ish ko'rdi, ya'ni so'zlar bir semantik maydonga kirishi uchun umumiy ma'nogo ega bo'lishidan tashqari bir so'z turkumiga mansub bo'lishi zarur. Shu tariqa G.Ipsen ishlarida u yoki bu so'zni bir guruhga birlashtirishda til faktorlari - morfologik shakllar mezon bo'lishi to'g'risidagi qarashlar o'z ifodasini topdi. Xususan, G.Ipsen o'zining maxsus maqolasida so'z semantik maydonini uning morfologik shakllariga qarab belgilash zarurligi haqidagi fikrni ilgari surgan. Ammo semantik maydonga ta'rif berishda olimlarning fikri turlicha. Masalan, O.S.Axmanovanning lug'atida unga shunday ta'rif beriladi: 1) semantik maydon - bu voqelikning insoniy tajriba orqali ajratilgan va nazariy jihatdan muayyan tilda u yoki bu tarzda avtonom leksik mikrosistemaga ega bo'lgan qismidir; 2) tematik qatorni tashkil qiluvchi so'z va ifodalarning yig'indisi; o'z yig'indisi bilan ma'nolarning ma'lum sohasini belgilovchi tilning so'z va ifodalari. [1] Y.N.Karaulov semantik maydon tushunchasi ostida bir tilda bir-biri bilan mazmunan bog'langan so'zlar guruhini tushunadi. [2]

Semantik maydonni belgilash va tahlil qilish metodlari turlichadir. N.G.Dolgix uni ajratishning besh usulini ko'rsatgan: 1) struktur; 2) psixofiziologik; 3) statistik; 4) psixolingvistik; 5) semantik. Shuningdek, N.G.Dolgix semantik maydonni tahlil qilishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkinligini qayd qiladi: 1) kontekstual tahlil metodi; 2) distributiv metod; 3) transformatsion; 4) komponent tahlil; 5) statistik; 6) psixolingvistik. [3] O'zbek olimasi Sh.Iskandarovanning fikricha ham: "Til (mazmuniy) mundarijasini maydon metodi bilan o'rganish eng samarali va qulay metodlardan biri bo'lib qoldi. Maydonlarni leksik-semantik (LSM) va funktsional-semantik maydonlarga (FSM) ajratishda oppozitiv, komponent tahlil hamda kontekstual tahlil metodlari o'ziga xos yordam beradi. [4]

Natijalar va muhokama

Ma'lumki, so'z semantik maydonini nazariy jihatdan tadqiq qilishga nemis tilshunosi Y.Trier asos solgan. Olim monografiyasida so'z ma'nosini tushunchalarga bog'lab tadqiq qildi. Y.Trier monografiyasining kirish qismida tushuncha taraqqiyoti bilan so'zning semantik taraqqiyotini o'zaro bog'liq deb ta'kidlagan. Keyinchalik tushunchalar maydoni nazariyasi G.Ipsenning «ma'nolar maydoni» va V. Porzigning «elementar ma'nolar maydoni» kabi fikrlari bilan to'ldirildi, aniqlashtirildi. A.Yolles esa qarama-qarshi ma'noli, shuningdek, korrelyativ so'zlardan iborat qoliplarda semantik maydonlarni o'rganish zarurligini taklif qildi. V.Porzig o'z maqolasida semantik maydonlar tadqiqining yangicha usullarini qo'lladi. Uning fikricha, semantik maydon bir turkum doirasida emas, turli turkumlar doirasida ham bo'lishi mumkin. V.Porzigning fikricha, qo'l oti ushlamoq bilan, ko'z oti ko'rmoq bilan, ovqat oti yemoq fe'li bilan bir semantik maydonga kiradi. [5]

L.Yel'mslev esa semantik maydonlar nazariyasida yangi davrni ochdi. U 1960 yilda chop etilgan maqolasida qarindosh-urug'chilik, harbiy terminlar semantik maydonini komponent tahlil qilib berdi va bunda so'zlar semantikasida bir maydonga tutashtiruvchi semalar mavjudligini ko'rsatdi. Ingliz tilshunosi E.A.Nayda komponent tahlil metodiga e'tiborni qaratib, komponent tahlil so'zlar semantikasini o'rganish, ularni bir guruhga birlashtirish va farqlanishini aniqlashda qo'l keladi, degan fikrni ilgari surdi. [6] Shundan so'ng rus tilshunoslari N.I.Tolstoy,

O.N.Seliverstova, frantsuz A.I.Greymas, tatar T.M.Garipovlar L.Yel'mselev metodini rivojlantirgan holda tadqiqotlarni amalga oshirdilar. Komponent tahlil metodi dastlab fonologiyada, keyinchalik grammatikada (R.Yakobson, A.Martine asarlarida), so'ngra semantikada qo'llanila boshladi.

Nemis tilshunosligida ham so'z turkumlarini semantik maydonlarga bo'lgan holda tadqiq qilish keng ommalashdi. Xususan, nemis tilshunoslari X.Brinkmann, I.Erben, P.Grebe, V.Shmidt, G.Xelbig, X.Dirsh asarlarida fe'llar semantik maydonlarga bo'lingan holda tadqiq qilingan. Nemis tilshunosi X.Brinkmann fe'llarni quyidagicha tasnif qilgan: yo'nalma harakat fe'llari, harakat fe'llari, holat fe'llari, turli voqealarni ifoda etuvchi fe'llar. [7]

X.Dirsh «Hozirgi nemis tilida harakat fe'llari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida harakat fe'llarining sintagmatik va paradigmatic munosabatlarini yoritish orqali ularning semantik tuzilishi va aloqalarini aniqlagan. [8] X.Dirsh xulosasiga ko'ra, fe'llarni guruhlariga bo'lib o'rganish ularning ichki guruhlar orasidagi turli munosabatlar, xususan, sinonimik, antonimik munosabatlarni aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Ko'rinadiki, Yevropa tilshunosligida so'z, asosan, fe'l semantik maydonlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Ular asosan, fe'l, ot, sifatga xos semantik maydonlar tadqiqiga bag'ishlangan ishlardir.

Rus tilshunosligida semantik maydonlar nazariyasi F.P.Filinning ishlarida rivojlantirildi. U o'z tadqiqotlarida semantik maydonlarni o'rganishda nemis tilshunoslaridek so'zlarning morfologik shakllari semantikasiga asoslanmaydi. Olim narsa va voqeliklarning o'ziga xos tasniflariga suyangan holda so'z semantik maydonlarini tuzishni ma'qul ko'radi.

Rus tilshunosligidagi so'zlarning semantik maydonlari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin: 1. Fe'l semantik maydonlarining tadqiqi. 2. Ot semantik maydonlarining tadqiqi. 3. Sifat va ravish semantik maydonlarining tadqiqi. 4. Rus tili bilan roman-german tillarining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar (ya'ni har ikki tildagi semantik maydonlar qiyosi).

Rus tilshunosligida maydon yondashuvi asosidagi qiyosiy tadqiqot birinchi marta V.A.Yurik tomonidan amalga oshirilgan. Keyinchalik bu yo'nalishda O.G.Revzina va A.M.Kuznetsovlarning tadqiqotlari yuzaga keldi. Ushbu tadqiqotlarda turli tillardagi derivatsion va terminologik maydonlar qiyoslangan. Keyinchalik rus tili leksikasidagi muayyan semantik maydonlarni boshqa til leksikasidagi aynan shunday semantik maydonlar bilan turli jihatlariga ko'ra qiyoslashga bag'ishlangan tadqiqotlar ham yaratila boshlandi. Ayniqsa, bu borada Bashqirdiston Davlat universiteti olimlari tomonidan nashr qilinadigan "Issledovaniya po semantike" ilmiy ishlar to'plamining "Исследования по семантике: Сопоставительно-типологический аспект" (Уфа, 1993. – Вып. 18. – 162 с.) nomli maxsus sonida izchil fikrlar bildirilgan. Ushbu to'plam rus tili leksikasidagi ayrim semantik maydonlarning roman-german va turkiy tillardagi shunday semali maydonlar bilan qiyosiy jihatdan o'rganishga bag'ishlangan.

Turkologiyada so'zlarni semantik maydonlarga bo'lib o'rganish asosan fe'llar doirasida amalga oshirilgan. Xususan, turkolog olimlar fe'llarning semantik guruhlarini aniqlab, ularning semantik tasnifini amalga oshirganlar. Ulardan quyidagilarni ta'kidlab ko'rsatish mumkin. N.K.Dmitriev fe'llarni quyidagi semantik guruh (maydon) larga ajratadi: 1. Nutq fe'llari. 2. Tafakkur fe'llari. 3. Faoliyat fe'llari. 4. Harakat fe'llari.

S.A.Rizaev esa ozarbayjon tilidagi fe'llarni quyidagi semantik guruh (maydon)larga ajratadi: 1. Harakat fe'llari. 2. Faoliyat fe'llari. 3. Nutq fe'llari. 4. Tafakkur fe'llari. 5. Ko'rish fe'llari.

6. Eshitish fe'llari.. 7. Holat fe'llari.

V.F.Veshilova turk tilidagi fe'llarni quyidagi semantik guruh (maydon)larga ajratadi: 1. Harakat fe'llari. 2. Faoliyat fe'llari. 3. Hayotiy jarayonlar: nutq, eshitish, tafakkur fe'llari. 4. Tabiat hodisalarini bildiruvchi fe'llar.

B.B.Kul'magambetova qozoq tilidagi fe'llarning quyidagi semantik maydonlarini ko'rsatadi: 1. Insonning harakati va faoliyati fe'llari. 2. Insonning sezgisi va tafakkuri. 3. Insonning his-tuyg'ularini ifodalovchi fe'llar. 4. Oziq-ovqatni qabul qilishni bildiruvchi fe'llar. 5. Insonning axloqi va xarakter-xususiyatini bildiruvchi fe'llar. 6. Tovushga taqlid fe'llari.

Semantik maydon nazariyasi o'zbek tilshunosligiga o'tgan asrning 1970 yillaridan keyin kirib keldi. Dastlab M.Sodiqova, D.Bozorova, so'ngra I.Abdurahmonov, R.Yunusovlarning tadqiqotlari yuzaga keldi. So'zlarni semantik maydon sifatida tadqiq etish, asosan, M.Sodiqovanning maqolalaridan boshlangan. Uning maqolalarida ko'lam bildiruvchi arxisemaga ega sifatlar semantik maydoni tadqiq etilib, shu orqali ular izohini berishga erishilgan.

XX asr o'zbek tilshunosligida fe'llarning semantik maydonlarini tadqiq etishga prof. I.Qo'chqortoev asos solgan deb aytish mumkin. Uning nutq fe'llari valentligi haqidagi monografiyasi katta ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi. R.Rasulov o'z doktorlik dissertatsiyasida (1989) holat fe'llarini semantik valentlik asosida tekshirib, so'z ma'nosining semantik tuzilishi shu so'z semantik valentligini belgilashini isbot qildi.

S.Muhamedova o'zbek tilidagi harakat fe'llarini chuqur tadqiq qildi. S.Muhamedovanning "O'zbek tilida harakat fe'llarining semantik va valentlik xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida harakat fe'llarining semantik maydoni belgilanib, fe'l-leksemalarning semantik tasnifi amalga oshirilgan, leksik-semantik guruh tarkibidagi har bir sememaning semalari izohlanib, harakat fe'llari o'rtasidagi semantik gradunomiya ko'rsatib berilgan.

Sh.Iskandarova semantik maydon nazariyasiga bag'ishlangan maxsus monografiya e'lon qilgan. Monografiyada lingvistikada maydon nazariyasi, maydonlar tasnifi haqida izchil nazariy ma'lumotlar berilgan bo'lib, ushbu monografiyani o'zbek tilshunosligida semantik maydon nazariyasining rivojiga qo'shilgan katta hissa deb baholash mumkin. Chunki ushbu monografiya asosida ko'plab tadqiqotlarning yuzaga kelishi shubhasiz.

O'zbek tilshunosligida fe'llarning nutq, holat, harakat, munosabat, sezgi, ko'ruv kabi semantik maydonlari doktorlik va nomzodlik ishlarida maxsus o'rganilgan. Bu yo'nalishdagi ishlar davom etmoqda. Ammo ta'kidlanganidek, "tafakkur" semali birliklar o'zbek tili misolida maxsus o'rganilmagan. Faqat birgina manbada "tafakkur" semali barqaror birliklar haqida ayrim fikrlar bildirilgan. Sh.Iskandarova o'z monografiyasining "Maydonlar tasnifi" bobida "Tafakkur" arxisemali barqaror birliklarning semantik xususiyatlari" nomli bo'limda (115-121 b.) ushbu arxisemali birliklarning ayrimlariga to'xtalib o'tadi.

Xulosa

Ko'rinadiki, turkologik tadqiqotlarda fe'llarning semantik maydonlari Yevropa tilshunosligiga nisbatan kengroq doirada tadqiq qilingan. Deyarli har bir tadqiqotda tafakkur fe'llari alohida guruh sifatida ajratilgan. Ammo ular tadqiqiga maxsus bag'ishlangan nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyasi yaratilmagan. Faqat birgina manbada "tafakkur" semali barqaror birliklar haqida ayrim fikrlar bildirilgan. Ammo "tafakkur" semali birliklarning semantik va sintagmatik xususiyatlari turli sistemaga oid ikki til misolida qiyoslab maxsus o'rganilmagan.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М.: Советская энциклопедия, 1966. -С. 606
2. Караулов Ю.Н. Структура лексико-семантического поля// Филологические науки. 1972, № 1. -С. 57
3. Долгих Н.Г. О способах выделения и методах анализа семантических полей // Сбор. научных трудов МГПИИЯ им. М. Тореца Вып. 65. -М., 1972. -С. 35-41.
4. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. -Тошкент: Фан, 2007. -Б. 56
5. Porzig W. Wesenhafte Bedeutungsbeziehungen // Beiträge zur Geschichte der deutschen Sprache und Literatur. -1934. -S.71.
6. Nida E.A. Analysis of meaning and dictionary meaning // International Journal of American Linguistics. V. 24. № 4. 1958. -P. 279-292.
7. Brinkmann H. Der Deutsche Sprache. Gestalt und Leistung. -Düsseldorf, 1962. -S. 224-229.
8. Diersch H. Verben der Fortbewegung in der deutschen Sprache der Gegenwart. -Berlin, 1972.

UDK 43

FÜR PREDLOGINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING O'ZBEK TILIDAGI TALQINI

SH. A.Mustanova(SamDU)

S.U.Tagayeva(SamDU)

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada für predlogining leksik-semantik xususiyatlari ochib berilgan, shuningdek, predlogning o'zbek tilidagi talqini izohlangan.

Калит сўзлар: predlog, so'z birikma, ekvivalent, vazifa, dinamik harakat

ЛЕКСИКО- СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРЕДЛОГА И ИХ УЗБЕКСКИЕ ЗНАЧЕНИЯ

Аннотация: В этой научной статье анализированы лексико-семантические особенности предлога für, а так же узбекское значение этого предлога даны с примерами

Ключевые слова: предлог, словосочетание, эквивалент, функция, динамическое действие

LEXICAL-SEMANTIC PECULIARITIES OF THE PREPOSITION FÜR AND ITS EXPLANATION IN UZBEK

Annotation: This scientific article is about lexical-semantic peculiarities of the preposition für, and its explanation in the Uzbek language with some examples

Key words: preposition, word combination, equivalent, function, dynamic activity

Für predlogining semantik doirasi juda keng bo'lib, u anglatadigan (ifodalaydigan) ma'nolar va tushunchalar mundarijasi xilma-xil, turli-tuman.



4	Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalarini o'qitishdagi muammolar va yechimlar Baymuratova I.V.....	148
5	Mutolaa madaniyatini shakllantirishda kutubxona va yangi axborot texnologiyalarining o'rni Abdulazizov A.H.....	152
6	Uzbekistanda rahbar ayollar imijini oshirishning ob'yektiv va sub'yektiv shart-sharoitlari G'afurova M.A., G'affarova G.G.....	159
7	Ekologik xavfsizlik sohasidagi xalqaro hamkorlikning institutsional mexanizmlari Hayitov J.....	165
8	Патриотизм и верность воинскому долгу – как основное качество военнослужащего Абдулхаев А.А.....	171
9	Markaziy Osiyo davlatlari hamjihatligi va birligining ijtimoiy-falsafiy jihatlar Haydaraliev Sh.....	175
10	Global inqiroz sharotida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari Alikulov X.A.....	179
11	Нравственный идеал и патриотическое воспитание студентов в современном обществе Хатамова Р.З.....	185
12	Jamiyatda g'oyaviy birdamlikni ta'minlash zaruriyati Sayidov M.X.....	189
13	Ekologik dunyoqarashni rivojlantirishda milliy va umuminsoniy manfaatlar birligi Quyliyev T.....	194
14	Понятие и особенности "Глубоких фейков" Ибрахимов Б. Б.....	201
15	Jamiyatni demokratlashuv jarayonlarida ijtimoiy innovatsiyalarning roli G'apparov E.O.....	206
16	Barkamol inson vatanparvarlikning bosh substansional komponenti-sub'yekti sifatida Kalkonov E.T.....	212
17	Globalashuv jarayonida shaxs erkinligi tamoyillari Qandov B.M.....	219

10.00.00

FILOLOGIYA FANLARI
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

1	O'zbek tilida sinonimiya munosabatini vujudga keltiruvchi omillar Xakimova M.K.....	227
2	Zamonaviy o'zbek tilini tillararo integratsiyasi Yuldashev M.M.....	236

903



3	Семантическая структура английских и каракалпакских фразеологизмов с компонентом зоонимом с отрицательной коннотацией Сагатова З.Б.....	240
4	Tilshunoslikda so'zlarning semantik maydonlar asosida o'rganilishi Umirzoqova F.I.....	246
5	Für predlogining leksik-semantik xususiyatlari va ularning o'zbek tilidagi talqini Mustanova Sh.A., Tagayeva S.U.....	250
6	„Dekameron“dagi sabr timsoli Grizelda Saydaliyeva G.S.....	254
7	Jahon tilshunosligida yuridik terminologiyani o'rganilganlik darajasi Abduraxmanova Z.Y.....	259
8	‘Umar Al-Chag‘miniyning “Al-Mulakhas Fi Al-Haya’a Al-Basita” asari: mulahhasning o'rganilishi Xolbayeva R.A.....	264
9	Developing students listening abilities and improve their knowledge Azimjonova M.T.....	269
10	Ispan tilining milliy-madaniy xususiyatlari Baxramova D.G'.....	273
11	Son komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari Maxamadaliyeva Z.B.....	277
12	Изучение колоративной лексики на уроках русского языка Максудова Ф.Ш.....	282
13	Hozirgi o'zbek dramaturgiyasida kinodramaturgiyaning o'рни Islomomov J.S.....	288
14	Methods of developing communicative competence in english for students of tourism Yuldasheva D.K.....	293
15	Eron tilshunoslarining qo'shma fe'llar borasidagi qarashlari Turdaliyev O.F.....	298
16	Azimxoja Eshon hikmatlarining ma'rifiy va badiiy jihatlari haqida Azizxonova S.....	303
17	Badiiy asarda qo'llangan ayrim ijtimoiy qatlamlar nutqining sotsiopragsmatik tahlili Yuldosheva M.Z.....	309
18	Tilshunoslikda nominasiya jarayoni Abduqaxarov Q.A.....	314
19	Biznes maqsadli koreys tili ta'limining bugungi holati Temirbulatova I.....	318
20	American capitalism reflected in Theodore Dreiser's novel “An American tragegy” Shomuxammadov X.....	322
21	Terminlar tizimlararo ko'chishning sotsial omillari Hashimova X.J.....	326
22	Sug'urta terminlarining shakllanishida semantik munosabatlar Xaydarov I.T.....	333